

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

№10

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

2025

oktyabr



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari
08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB™
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic Resource Index
ResearchBib

ISSN INTERNATIONAL
STANDARD SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU



РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 355 sahifa.
2025-yil, 18-oktyabr,

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afarovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Muhammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Botirali Roxataliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellashtirish
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK
Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

JAHON MOLIYA TIZIMIDA “YASHIL” MOLIYALASHTIRISHNI RIVOJLANISHINING MUAMMOLARI VA SHARTLARI	12
Quliyev Begimqul Melikovich	
EKOLOGIK MIGRANTSIYANI MINTAQAVIY MIQYOSDA MUVOFIQLASHTIRISHNING ASOSIY YO‘NALISHLARI	18
Bahtiyor Ismoilov Ulug‘bek o‘g‘li, Kadirova Zulayxo Abduxalimovna	
O‘ZBEKISTONDA BANK XIZMATLARINI RAQAMLASHTIRISH HOLATI	25
Davletova Nilufar Tulanovna	
EKONOMETRIK MODELLASHTIRISHDA MINTAQANI IQTISODIY RIVOJLANISHIGA TA‘SIR ETUVCHI OMILLAR TAHLILI	30
Qodirov Farrux Ergash o‘g‘li	
SUV RESURSLARIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING XORIJ TAJRIBASI	37
Kadirxodjayeva Nilufar Raxmatullayevna	
MAHALLIY XOMASHYO BAZASIDAN FOYDALANISH ORQALI ISHLAB CHIQARISH XARAJATLARINI KAMAYTIRISH YO‘LLARI	46
Sultanov Dilshod Normamatovich	
IQTISODIYOTI RIVOJLANGAN DAVLATLARDA INSON KAPITALIGA INVESTITSİYALARNI JALB QILISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	50
Akhmadaliyeva Nikholakhon	
O‘QITUVCHILAR VA TALABALAR UCHUN INNOVATSION TA‘LIM DASTURLARINI ISHLAB CHIQISHDA XALQARO STANDARTLARGA MOSLASHUV MEXANIZMLARI	62
Yuldashev Iskandar Bahromovich	
YER QA‘RIDAN FOYDALANGANLIK UCHUN SOLIQLARNING ILMIY-TADQIQOTLAR SHARHI	68
Zoxidov Ismatjon Yunusjon o‘g‘li	
RESPUBLIKA IQTISODIY TARAQQIYOTIDA OLIY TA‘LIMNI MODERNIZATSIYA QILISH VA INVESTITSIYA JOZIBADORLIGINING O‘RNI	74
Jonuzokov Mirzabek Kulmamatovich	
DAVLAT IQTISODIY XAVFSIZLIGINI MUSTAHKAMLASHDA SIYOSIY INSTITUTLARNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH STRATEGIYALARI	80
O. Nurmuradov	
ICHKI AUDIT SAMARADORLIGINI BAHOLASH MEZONLARI VA BUXGALTERIYA MA‘LUMOTLARINING ICHKI AUDIT JARAYONIDA EKONOMETRIK MODELLASHTIRISHNING AHAMIYATI	85
Xamidov Javoxir Shavkat o‘g‘li, Muxitdinov Shoxijaxon Xudoyor o‘g‘li	
XORIJIY INVESTITSİYALARNI JALB ETISHNING MOLIYAVIY MEXANIZMLARINI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI	90
Xuramov Zafar Rajabaliyevich	
KORPORATIV TUZILMALARDA INVESTITSION JOZIBADORLIKNI TA‘MINLASHNING AHOLI DAROMADLARINI OSHIRISHDAGI ROLI	95
Qurbonov Javlonbek Jurabekovich, Raxmatov Faxriddin Xasanovich	
GLOBAL RIVOJLANISH JARAYONIDA SUG‘URTA XIZMATLARINI ISLOH QILISH MASALALARI	99
Xushmuradov Oman, Ismoilov Sherzod Ismoil o‘g‘li	



DORIVOR O'SIMLIKLARNI QAYTA ISHLASHNING TASHKILY-IQTISODIY MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI	103
Usmonov Mirg'ulom Xoshim o'g'li	
BARQAROR IQTISODIY O'SISHGA ERISHISHDA SUN'IY INTELLEKT TIZIMLARINI QO'LLASH METODOLOGIYASINING AHAMIYATI	109
Nasrulloev Hayotjon Xabibulloevich	
НЕЙРОИНТУИТИВНЫЙ ИНТЕЛЛЕКТ КАК ФАКТОР КОНКУРЕНТНОГО ПРЕИМУЩЕСТВА НА РЫНКЕ ТРУДА.....	115
Ягудин Дмитрий Рустамович	
RESURSLARNI SOLIQQA TORTISHGA OID TADQIQOTLARNING NAZARIY TAHLILI.....	123
NasimdjanoV Yunusjon Zoxidovich	
SOLIQ TO'LOVCHILAR FAOLIYATINI MUVOFIQLASHTIRISH: XULQ-ATVOR IQTISODIYOTI VA PROGRESSIV TARIFLARNI LOYIHALASH	129
Abduraimova Nigora Abdugapparovna	
DAVLAT RAQAMLI LOYIHALARI: UZINFOCOMNING TA'LIM TIZIMI VA IQTISODIY SAMARADORLIKKA QO'SHGAN HISSASI	134
Raxmatxo'jayev Axrorxo'ja Akmal o'g'li	
РОЛЬ ЦИФРОВЫХ ПАСПОРТОВ В ПРОМЫШЛЕННОЙ ЭКОНОМИКЕ И ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ.....	140
Мансурова Сайёра Бахтияровна	
BANK XIZMATLARIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI	148
Xolikova Oydin Olimjonovna	
PNEVMOMEXANIK YIGIRISH TEXNOLOGIYASI XUSUSIYATLARI	153
Jumaniyazov Kadam, Salimov Shuhrat Halimovich, Nazarov Ramazon Anvarovich	
GREEN INDUSTRY AND THE ECONOMY OF ENVIRONMENTALLY FRIENDLY CONSTRUCTION: INTERNATIONAL EXPERIENCE AND UZBEKISTAN'S OPPORTUNITIES.....	158
Mansurova Sayyora Bakhtiyor kizi	
TELEKOMMUNIKATSIYA SOHASINI RIVOJLANTIRISH TAHLILI	166
Suyunov Asror Baxtiyorovich	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA LOGISTIKA XIZMATLARINING MIKRO VA MAKRO TUZILMALARI, ULARNING FUNKSIONAL METADOLOGIK TAMOYILLARI.....	171
Z.Teshayev	
O'ZBEKISTONDA DAVLAT ULUSHI MAVJUD KORXONALARNI BOSHQARISHDA XORIJIY TAJRIBADAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI	176
Ismailov Allayor Rashidovich	
MAHSULOT TANNARXINI ANIQLASHDA ISHLAB CHIQRISH XARJATLARINI OG'ISHISHLARI VA ULARNI TAQSIMLASH	183
Raxmatov Baxriddin Baxtiyor o'g'li	
ПОВЫШЕНИЕ СТОИМОСТИ СПОРТИВНЫХ ОРГАНИЗАЦИЙ И ОБЪЕКТОВ НА ОСНОВЕ АУТСОРСИНГА	186
Исмагулова Гульмира Нуралиевна	
RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA TURIZMNI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY KONSEPSIYASI.....	193
Xaitov Oxunjon Nomoz o'g'li	
O'ZBEKISTON SHAROITIDA XIZMATLAR SIFATINI OSHIRISHDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYANING INSTITUTSIONAL VA TASHKILYIY MEXANIZMLARI.....	198
Xudoyorov Lochinbek Bahromovich	
TIJORAT BANKLARIDA UZOQ MUDDATLI RESURSLARNI JALB QILISHDA XALQARO TAJRIBA.....	203
Abduraxmonov Akmal Nurmat o'g'li	



MEHNATGA LAYOQATLI TRANSPORT SOHASIDAGI AHOLINI ISH O'RINLARI BILAN TA'MINLANGANLIK HOLATINI TAHLILI	207
Abdullayeva Nigora Shamsiddinovna	
TO'QIMACHILIK SOHASINI BARQAROR RIVOJLANTIRISH MODELI	212
Mdraximova Gulasal Ro'zimboy qizi	
TIJORAT BANKLARIDA KREDIT PORTFELI DIVERSIFIKATSIIYASI VA GAROV TA'MINOTI SIFATINING BANK BARQARORLIGIGA TA'SIRI	220
Xolbozorov Husniddin Norbek o'g'li	
O'ZBEKISTON - 2030 STRATEGIYASI DOIRASIDA TIJORAT BANKLARIDA KREDIT RISKLARINI BOSHQARISH: MUAMMOLAR VA TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI	226
Norova Nozima Nabiyevna	
UY-JOY KOMMUNAL XIZMATLARNI INNOVATSION RIVOJLANTIRISHNING KLASTERLI MEXANIZMI TAHLILI	232
Odamboyev Oybek Ravshanbek o'g'li	
KORPORATIV BOSHQARUV TUZILMALARIDA MOLIYAVIY MUNOSABATLARNING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI	236
Qurbaniyazov Shaxzodbek Karimovich	
XALQARO SAVDONING RIVOJLANISHI VA ZAMONAVIY TENDENSIYALARI	242
Jalolov Bekzod Sherzod o'g'li	
TA'LIM TIZIMINI MOLIYALASHTIRISHNING YANGI TIZIMINI JORIY ETISHGA QARATILGAN NAZARIY JIHATLAR	247
Dusanov Salim Mamarasulovich	
O'ZBEKISTONDA BUDJET TUSHUMLARINI OSHIRISHDA BOJXONA AUDITINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	254
Aktamov Akbarjon Aslan o'g'li	
DAVLAT TA'LIM TASHKILOTLARIDA QURILISH XARAJATLARI HISOBINI YURITISH	262
Ostonokulov Azamat Abdugarimovich	
РАЗРАБОТКА ОРГАНИЗАЦИОННЫХ МОДЕЛЕЙ ИНТЕГРАЦИИ КРЕАТИВНЫХ ИНДУСТРИЙ В ТУРИСТИЧЕСКУЮ ИНФРАСТРУКТУРУ РЕСПУБЛИКИ КАРАКАЛПАКСТАН	273
Хошимова Камилла Навфал қизи	
A NEW STAGE IN THE APPLICATION OF MARKET MECHANISMS TO ENTREPRENEURIAL ACTIVITY	285
Ibrayim Maxkamov	
RESURSLARDAN SAMARALI FOYDALANISH ORQALI SOG'LIQNI SAQLASH XIZMATLARINING IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISH USULLARI	291
Eshbekova Xayriniso Baxtiyorovna	
QASHQADARYO VILOYATI IQTISODIYOTIDA DXSH ASOSIDA INVESTITSIYA MUHITINING SHAKLLANISHI	297
Hamroyev G'ayratjon Sultonovich	
TURIZM XIZMATLARI BOZORIDA MIJOZLAR EHTIYOJLARINI O'RGANISH VA TAHLIL QILISH	301
Shaymanov To'liqin Mahmayusupovich	
ПРИМЕНЕНИЕ ИННОВАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ И ЦИФРОВЫХ ПОДХОДОВ В НАЛОГОВОМ ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВЕ	306
Элбаева Мукаддас Рашидовна	
СИНТЕЗ НЕЧЕТКОЙ СИСТЕМЫ УПРАВЛЕНИЯ ТЕПЛОЭНЕРГЕТИЧЕСКИХ ОБЪЕКТОВ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ	311
Бахриева Хуршида Аскарходжаевна, Сафаров Шохрух Шарофович, Бахрамов Муҳаммадали Ералиевичасистент	
ШАНХАЙСКАЯ ОРГАНИЗАЦИЯ СОТРУДНИЧЕСТВА КАК КАТАЛИЗАТОР ДОСТИЖЕНИЯ СТРАТЕГИЧЕСКИХ ЦЕЛЕЙ РАЗВИТИЯ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН	319
Базарова Гулнора Гуламовна	



O'ZBEKISTON KORXONALARINING TASHQI IQTISODIY FAOLIYATINI MOLIYALASHTIRISHDA BANK KREDITLASH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	323
Pulatova Moxira Baxtiyorovna	
QUESTIONS ABOUT THE STUDY OF PERFORMANCE AND EFFICIENCY OF APPLICATION OF LOADING AND EXTRACTING EQUIPMENT	327
Azamat Umirzokov	
MATOLARNING HAVO O'TKAZUVCHANLIGI KORRELATSION TAHLILI.....	334
Ismailov Nurulla Tuychibayevich	
O'ZBEKISTONDA QISHLOQ XO'JALIGI RISKLARINI SUG'URTALASHNING AFZALLIKLARI	339
Mamadjanov Shuxrat Jalolidinovich	
IKKI QATLAMLI ARALASH TOLA TARKIBLI TRIKOTAJ TO'QIMASINI OLIISH USULI	343
Usnatdinova Elmira Faxratdinovna, Mirusmanov Baxtiyor, Abdurahimova Fazilat Abdullayevna	
MAHALLIY DAVLAT HOKIMIYATI ORGANLARIDA ENG ILG'OR TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA QAROR QABUL QILISH JARAYONLARINING OPTIMALLASHTIRISH YO'LLARI.....	347
Axmedov Farxod Raxmonjonovich	



MAHALLIY DAVLAT HOKIMIYATI ORGANLARIDA ENG ILG'OR TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA QAROR QABUL QILISH JARAYONLARINING OPTIMALLASHTIRISH YO'LLARI



Axmedov Farxod Raxmonjonovich

Namangan davlat texnika universiteti doktoranti

E-mail: Gretacollin68@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu ilmiy ishda mahalliy davlat hokimiyati organlarida raqamli transformatsiya orqali qaror qabul qilish samaradorligini oshirish masalasi kompleks tahlil qilinadi. "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi asosida mahalliy boshqaruv tizimida raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali qarorlarni tez, shaffof va aniq qabul qilish imkoniyatlari kengaymoqda. Tadqiqot doirasida AI-DSMS-LGA (Sun'iy Intellekt – Qarorlarni Qo'llab-quvvatlash va Monitoring Tizimi) modeli ishlab chiqilib, ushbu model orqali real vaqt rejimida ma'lumotlarni tahlil qilish, prognozlash va qaror tavsiyasi berish imkoniyati yaratilgan. Model boshqaruv jarayonlarida insoniy omil va sun'iy intellekt o'rtasida muvozanatni ta'minlab, qarorlar sifatini oshirishga xizmat qiladi. Sotsiologik so'rov natijalari shuni ko'rsatdiki, respondentlarning aksariyati raqamli texnologiyalar "qisman" qo'llanilayotganini bildirgan, bu esa infratuzilma va kadrlar salohiyati borasida muammolar mavjudligini anglatadi. EGDI reytingida O'zbekistonning yuqori o'rinlarni egallashi esa davlat siyosatining natijadorligini aks ettiradi. Aholining raqamli ishtiroki darajasini oshirish va sun'iy intellekt texnologiyalarini amaliyotga keng tatbiq etish orqali mahalliy boshqaruv tizimida qaror qabul qilish samaradorligini yanada oshirish mumkinligi asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: mahalliy davlat hokimiyati, qaror qabul qilish, raqamli transformatsiya, sun'iy intellekt (AI), AI-DSMS-LGA modeli, elektron hukumat (EGDI), axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT), raqamli ishtirok, boshqaruv samaradorligi.

Abstract. This scientific work comprehensively analyzes the issue of increasing the efficiency of decision-making in local government bodies through digital transformation. Based on the "Digital Uzbekistan – 2030" strategy, the introduction of digital technologies in the local government system is expanding the possibilities for fast, transparent and accurate decision-making. As part of the research, the AI-DSMS-LGA (Artificial Intelligence – Decision Support and Monitoring System) model was developed, which allows for real-time data analysis, forecasting and decision recommendations. The model provides a balance between the human factor and artificial intelligence in management processes and serves to improve the quality of decisions. The results of the sociological survey showed that the majority of respondents indicated that digital technologies are being used "partially", which indicates the presence of problems with infrastructure and human resources. The high position of Uzbekistan in the EGDI rating reflects the effectiveness of state policy. It is substantiated that it is possible to further improve the efficiency of decision-making in the local government system by increasing the level of digital participation of the population and widely implementing artificial intelligence technologies in practice.

Keywords: local government, decision-making, digital transformation, artificial intelligence (AI), AI-DSMS-LGA model, electronic government (EGDI), information and communication technologies (ICT), digital participation, management efficiency.

Аннотация. В данной научной работе всесторонне анализируется вопрос повышения эффективности принятия решений в органах местного самоуправления посредством цифровой трансформации. На основе стратегии «Цифровой Узбекистан – 2030» внедрение цифровых технологий в систему местного самоуправления расширяет возможности для быстрого, прозрачного и точного принятия решений. В рамках исследования разработана модель AI-DSMS-LGA (Искусственный интеллект – Система поддержки и мониторинга решений), позволяющая проводить анализ данных, прогнозирование и выдачу рекомендаций по решениям в режиме реального времени. Модель обеспечивает баланс между человеческим фактором и искусственным интеллектом в процессах управления и служит повышению качества принимаемых решений. Результаты социологического опроса показали, что большинство респондентов указали на «частичное» использование цифровых технологий, что свидетельствует о наличии проблем с инфраструктурой и человеческими ресурсами. Высокая позиция Узбекистана в рейтинге EGDI отражает эффективность государственной политики. Обосновано, что дальнейшее повышение эффективности принятия решений в системе местного самоуправления возможно за счет повышения уровня цифрового участия населения и широкого внедрения технологий искусственного интеллекта в практику.

Ключевые слова: местное самоуправление, принятие решений, цифровая трансформация, искусственный интеллект (ИИ), модель AI-DSMS-LGA, электронное правительство (EGDI), информационно-коммуникационные технологии (ИКТ), цифровое участие, эффективность управления.

KIRISH

Global miqyosda davlat boshqaruvi tizimlarining raqamli transformatsiyaga yuz tutishi, mahalliy darajadagi hokimiyat organlari oldiga ham yangi vazifalarni qo'yimoqda. O'zbekiston Respublikasida "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi doirasida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish bo'yicha keng ko'lamli islohotlar olib borilmoqda. Bunda boshqaruv jarayonlarini soddalashtirish, qarorlar qabul qilishda shaffoflikni ta'minlash va aholining ishtirokini kuchaytirish kabi jihatlar alohida o'rin tutadi. Raqamli texnologiyalar yordamida qarorlarni tezkor va aniq qabul qilish imkoniyati yaratiladi, resurslardan oqilona foydalaniladi va fuqarolar ehtiyojlariga tez javob berish imkoni oshadi.

Hozirgi globallashtiruv jarayonlari sharoitida davlat boshqaruvi tizimining samaradorligini oshirish, ayniqsa, mahalliy darajadagi hokimiyat tuzilmalarida qarorlarni qabul qilish va ularning ijrosini ta'minlash eng dolzarb masalalardan biri bo'lib qolmoqda. Mahalliy boshqaruv tizimi fuqarolarga eng yaqin bo'lgan boshqaruv shakli sifatida aholining ehtiyojlariga tez va aniq javob berishi bilan ajralib turadi. Shu sababli, mazkur tizimda qabul qilinadigan har bir qarorning o'z vaqtida, samarali va sifatli amalga oshirilishi aholining davlatga nisbatan ishonchini mustahkamlash, jamiyatdagi ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash hamda hududlar taraqqiyotiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Raqamlashtirish jarayonlari nafaqat kundalik boshqaruv amaliyotini soddalashtiradi, balki boshqaruv tizimining ochiqligi, shaffofligi va javobgarligini ta'minlashda ham muhim rol o'ynaydi. Shu sababli, mahalliy boshqaruv strukturalarida raqamli texnologiyalar asosida qaror qabul qilish mexanizmlarini takomillashtirish zamonaviy ilmiy va amaliy izlanishlar markazida turmoqda.

Bu esa, o'z navbatida, hududiy boshqaruv samaradorligini oshirish, raqamli infratuzilmani rivojlantirish hamda innovatsion yondashuvlarni tatbiq etishga qaratilgan strategik qarashlarni shakllantirish uchun muhim zamin yaratadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

D.Sayogo[3] tadqiqotida mahalliy boshqaruvda data-driven qaror qabul qilishning muvaffaqiyat omillarini chuqur o'rganadi. Tadqiqotga intervyu va holat-tahlillar (case studies) kirib, ma'lumot sifatining yaxlitligi, idoralararo ma'lumot almashinuvi va yetakchilik madaniyati — samarali foydalanishning asosiy elementlari ekanligini ko'rsatadi. Muallif shuningdek resurs cheklovlari va kadr tayyorgarligi muammolari qaror qabul qilishni cheklayotganini qayd etadi. Shunga ko'ra, mahalliy idoralarda ma'lumot infrastrukturasi va fuqaro yo'naltirilgan trening dasturlarini mustahkamlash zarur.

T.Yigitcanlar va P.Scholten[4] ilmiy ishida Alning mahalliy hukumatlarda qo'llanilishi bo'yicha keng qamrovi tahlil beradi va adoatsiya bosqichlari, etika va tartibga solish masalalarini belgilaydi. Sistemik adabiyot tahlili yordamida muallif AI tizimlarini budjetlashtirish, xizmatlarni avtomatlashtirish va prognozlash uchun qo'llash imkoniyatlarini ko'rsatadi, biroq shaffoflik va adolat (bias) muammolari alohida e'tibor talab qilishini ta'kidlaydi. Shu sababli, mahalliy hukumatlar mas'uliyatli AI siyosatini ishlab chiqib, shaffof monitoring mexanizmlarini joriy etishi lozim.

F.Tejedro-Romero va hamkorlari[5] tadqiqotida Portugal misolida e-hukumat va onlayn ishtirok jarayonlarining joriy etilishi va ularning mahalliy partitsipatsiyaga ta'sirini empirik usulda tahlil qiladi. Tadqiqot



metodikasi — so'rovlar va hududiy taqqoslashlar; natija shuni ko'rsatadiki, texnologiyalar fuqarolarni jalb qilish imkoniyatini oshiradi, ammo dizayn va integratsiya sifatida kontekstga mos yechimlar talab etiladi. Shu sababli, raqamli ishtirok platformalarini mahalliy ehtiyoj va tillarga moslashtirish kerak.

M.Hossin[6] maqolasida katta ma'lumot (Big Data) va analitikadan davlat siyosatini yaxshilashda foydalanish imkoniyatlarini tahlil qiladi. Maqolada analitik kadrlar, ma'lumot arxitekturalari va maqsadli biznes-intelligence yondashuvlari muhimligi ta'kidlanadi; ayniqsa infratuzilma investitsiyalari va ma'lumotlar boshqaruvi siyosati orqali xizmat ko'rsatish tezligi va xabardorligi oshiriladi. Shuning uchun, mahalliy darajada ma'lumot arxitekturasini yaratish orqali qaror qabul qilish samaradorligini oshirish lozim.

A.David va hamkasblari[7] ilmiy izlanishida mahalliy hukumatlarda mas'ul AI strategiyalarini ishlab chiqish bo'yicha konseptual va amaliy yo'riqnomani taqdim etadi; metod — adabiyot sintezi va case-study tahlil. Muallif budjet taqsimoti, smart-budjetlash va resurs optimallashtirish jarayonlarida AI vositalari qanday qo'llanishi mumkinligini va shu bilan birga huquqiy va axloqiy cheklolarga rioya etish zarurligini ko'rsatadi. Shu sababli, mahalliy organlarda AI va analitik vositalarni joriy etishdan oldin risk-baholash va shaffoflik kafolati mexanizmlarini joriy etish zarur.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Prezidentimiz Sh.Mirziyoyevning 2020-yil 5-oktyabrdagi «Raqamli O'zbekiston — 2030» strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida” gi PF-6079-sonli¹ Farmonida mamlakatimizda raqamli iqtisodiyotni faol rivojlantirish, barcha tarmoqlar va sohalarda, eng avvalo, davlat boshqaruvi, ta'lim, sog'liqni saqlash va qishloq xo'jaligida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilayotganligi ta'kidlab o'tilgani va bu yo'nalishni rivojlantirish uchun yo'l xaritalari tasdiqlanganligi sohani rivojlantirish dolzarbligini belgilamoqda.

Mavzu doirasida ko'plab xorijiy olimlar ilmiy izlanishlarini olib borganlar, jumladan, Kudina M.V., Voronov A.S., Gavrilyuk A.V.² lar axborot texnologiyalarining zamonaviy imkoniyatlari boshqaruvning an'anaviy inson bajaradigan sxemalarida tasavvur ham qilib bo'lmaydigan operatsiyalar bajarilishiga yo'l qo'yib, qaror qabul qilish tartib-qoidalarini tubdan o'zgartirish imkonini berishini asoslaganlar.

Iqtisodchi olim S.G.Eremin³ o'zining ilmiy ishlarida “Raqamlashtirish imkoniyatlarining kengayishi tufayli elektron hukumat yangi shakllarni kasb etayotganligini ta'kidlab, davlat raqamli transformatsiya yo'lga kirar ekan, u to'liq yoki qisman sifat jihatidan yangi ekotizimli tuzilmaga aylanishini va hokimiyat tizimlarida GOVTHECH-texnologiyalarini qo'llashning manfaatli aspektlarini asoslagan.

Hozirgi davrda internet texnologiyalari va ular asosidagi ilmiy yondashuvlar davlat idoralari bilan fuqarolar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni, shuningdek, boshqaruv jarayonlarini mutlaqo yangi bosqichga olib chiqmoqda. Bugungi kundagi ilmiy va ijtimoiy nutqda “kiber muhit”, “virtual muhit” kabi iboralar tobora ko'proq qo'llanilmoqda va kundalik turmushimizning ajralmas qismiga aylanmoqda.

Ushbu tushunchalarning mahalliy ijro hokimiyati tizimi bilan qanday bog'liqligi masalasi dolzarbligicha qolmoqda. Shu sababli, bu hodisalarga sotsiologik va boshqaruv fanlari nuqtayi nazaridan chuqur tahliliy yondashuv zarur bo'lmoqda. Mazkur yondashuvlar orqali raqamli muhitning boshqaruv amaliyotiga qanday ta'sir o'tkazayotgani, ularning o'zaro integratsiyalashuvi va yuzaga kelayotgan yangi ijtimoiy munosabatlar xususiyatlarini aniqlash mumkin bo'ladi (1-jadval).

1-jadval. Internet muhitini tahlil qilishda sotsiologik-boshqaruv yondashuvi⁴

Internet muhitining mohiyati
Internet makoni — bu agentlar va ularning guruhleri imkoniyatlarini belgilab beruvchi institutsional va infratuzilmaviy jihatdan vositachilik qilinadigan, ijtimoiy jihatdan konstruksiya qilinadigan soha hisoblanadi.
Agentlar o'zaro ta'sirini amalga oshirishdagi cheklolvar
Agentlarning malakasi va kompyuter savodxonligining yetarli darajada emasligi; O'zaro ta'sir (munosabat) uchun zarur infratuzilmaning etarli darajada mavjud emasligi; Axborotni tanlab olish (seleksiya) zarurati.
Internet muhitida o'zaro ta'sirni amalga oshirishning afzalliklari

1 <https://lex.uz/docs/5030957>

2 Кудина М.В., Воронов А.С., Гаврилюк А.В. Внедрение цифровых платформ для принятия решений в государственном управлении // Государственное управление. Электронный вестник. 2023. № 100. С. 166–179. DOI: 10.24412/2070-

3 Еремин, Сергей Геннадьевич. «Применение цифровых технологий в сфере государственного управления на федеральном уровне и направления их совершенствования.» Экономика. Налоги. Право 17.1 (2024): 98-105.

4 Тихонов А. В. От социологии менеджмента к социологии управления // Социологические исследования. 2011. № 2. С.40-45.

Qisqa vaqt ichida fikr almashish (teskari aloqa) imkoniyati; Agentlar doirasining keng qamrovi; Kun-u tun, ya'ni 24/7 rejimda o'zaro muloqot qilish imkoni

Internet makonida o'zaro ta'sir natijasi

Boshqaruv munosabatlarining maqsadlariga erishish; Ijtimoiy (jamoaviy) masalalarning hal qilinishi

Hozirgi kunda mahalliy ijro hokimiyati organlari zamonaviy raqamli texnologiyalar yordamida aholiga bevosita murojaat qilish va ular bilan interaktiv aloqa o'rnatish imkoniyatiga ega bo'lib bormoqda. Bunday imkoniyatlar boshqaruv jarayonlarini takomillashtirishda muhim strategik yo'nalish hisoblanadi. Ayniqsa, fuqarolarning elektron shakldagi ishtirokini ta'minlash — bu jarayonning eng murakkab va ayni paytda muhim bosqichi sifatida ko'riladi.


Mazkur bosqich ikki asosiy yo'nalishni o'z ichiga oladi: birinchisi – axborot yetkazish, ikkinchisi esa – fuqarolarning amaliy ishtirokini tashkil etishdir.

Dastlabki bosqichda mahalliy hokimiyat fuqarolarni elektron boshqaruv tizimi orqali qanday ishtirok etishlari mumkinligi haqida xabardor qiladi. Keyingi bosqichda esa fuqarolar to'g'ridan to'g'ri mahalliy muammolarni hal qilishda va qarorlar qabul qilishda faol qatnashadilar.

Mahalliy davlat hokimiyati organlarining qaror qabul qilish jarayonlarida va kundalik asosiy funksiyalarini amalga oshirishda elektron dasturiy ta'minotlar hamda platformalardan keng foydalanishni yo'lga qo'yish davr talabiga aylanmoqda.

BMT tomonidan har to'rt yilda amalga oshiriladigan tahliliy tadqiqotlar, xususan “Elektron hukumat”ni rivojlantirish indeksi (EGDI – E-Government Development Index) asosida o'tkaziladigan baholashlar natijalariga ko'ra, 2024-yil O'zbekiston uchun tarixiy bosqich bo'ldi. Mamlakat ilk marotaba EGDI reytingida yuqori natijalarga erishgan davlatlar ro'yxatiga kiritildi.

Bu yutuq, O'zbekistonning raqamli boshqaruv sohasida sezilarli taraqqiyotni namoyon etayotganini ko'rsatadi. Xususan, mamlakat EGDI reytingining V1 yoki V2 toifasiga mansub deb baholangan bo'lib, bu esa uning ushbu sohadagi rivojlanish bosqichini anglatadi. EGDI uch asosiy komponent – inson kapitali indeksi (HCI), telekommunikatsiya infratuzilmasi indeksi (TII) va onlayn xizmatlar indeksi (OSI)dan iborat bo'lib, ayniqsa OSI ko'rsatkichi bo'yicha salmoqli o'sish qayd etilgan (1-rasm).



1-rasm. 2005—2024-yillarda O'zbekiston Respublikasining EGDI indeksi bo'yicha o'rni.⁵

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 14-oktyabrdagi “Sun'iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida”⁶gi PQ—358-sonli Qarori bilan “Respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari sun'iy intellektni rivojlantirish yo'nalishida zarur bo'lgan ma'lumotlardan foydalanish uchun axborot tizimlari, ma'lumotlar bazalariga ulanish va to'siqsiz foydalanish imkoniyatini yaratish lozimligini va boshqaruv organlari hamda mahalliy hokimiyat organlari xodimlari uchun ixtisoslashtirilgan sun'iy intellektni o'qitish dasturlarini ishlab chiqish va o'quv jarayonlarini

5 <https://publicadministration.un.org/egovkb/en-us/Data/Country-Information/id/186-Uzbekistan/dataYear/2024>

6 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 14.10.2024 yildagi “Sun'iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi PQ-358-sonli Qarori



yo'lga qo'yish orqali prognoz qilish va qaror qabul qilish jarayonlarida algoritmlar aniqligi oshishini belgilab berildi.

Biz tomonidan ishlab chiqilgan AI-DSMS-LGA (Sun'iy intellekt – mahalliy boshqaruv organlarida qarorlarni qo'llab-quvvatlash va monitoring tizimi –) modeli mahalliy hokimiyat tuzilmalariga boshqaruvga oid qarorlarni tez, aniqlik bilan, shaffof va samarali tarzda qabul qilishda yordam berishga mo'ljallangan zamonaviy sun'iy intellekt asosidagi tizimdir. Ushbu model qarorlarni tavsiya qilish, natijalarni kuzatib borish hamda o'z faoliyatini muntazam takomillashtirib borish funksiyalarini o'z ichiga oladi va quyidagi asosiy komponentlardan iborat:

- katta hajmdagi ma'lumotlarni yig'ish (big data texnologiyalari asosida);
- ma'lumotlarni saralash va chuqur tahlil qilish;
- sun'iy intellekt asosiy moduli;
- qarorlarni asoslash va qo'llab-quvvatlash mexanizmi;
- foydalanuvchi (inson) bilan o'zaro aloqa interfeysi;
- jarayon va natijalarni monitoring qilish, shuningdek, tizimni qayta o'rganish va o'zgaruvchan sharoitlarga moslashtirish imkoniyatlari.

Yuqoridagi ilmiy qarashlar tahlili qilish hamda mavzuning dolzarbligini asoslash maqsadida tadqiqotda quyidagi metodlardan foydalanildi:

- sotsiologik so'rov: Tadqiqot ishida 243 nafar mahalliy davlat hokimiyati organlarida faoliyati yurituvchi respondentlar orasida mahalliy hokimiyatlarda raqamli texnologiyalar qo'llanilishi darajasi o'rganildi.

- ekspert tahlil: AI-DSMS-LGA (sun'iy intellekt asosida qaror qabul qilishni qo'llab-quvvatlash tizimi) modeli ishlab chiqildi.

- grafik asosida tahlil: EGDI indeksleri, foydalanuvchi ishtiroki va raqamli texnologiyalarning ta'siri baholandi.

- normativ hujjatlar tahlili: Prezident Farmon va Qarorlari, BMT EGDI ko'rsatkichlari tahlil qilindi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot quyidagi asosiy natijalarni berdi:

- tadqiqot ishida o'tkazilgan so'rovnoma natijalariga ko'ra, respondentlarning 67,9% mahalliy davlat hokimiyati organlarida raqamli texnologiyalar "qisman" qo'llanilayotganini e'tirof etishgan va 14% "to'liq qo'llaniladi" deb javob bergan.

- tahlillarga ko'ra BMTning EGDI indeksi bo'yicha O'zbekiston 2024-yilda ilk bor juda yuqori ko'rsatkichga ega davlatlar qatoriga kirgan (EGDI: 0.7999).

- ishlab chiqilgan AI-DSMS-LGA modeli yordamida mahalliy davlat hokimiyati organlarida qarorlar qabul qilishda real vaqtli ma'lumotlar asosida prognoz, monitoring va tahlil qilish imkoniyati yaratiladi.

- mahalliy davlat hokimiyati organlari qarorlari muhokamasi uchun mo'ljallangan platformalarining mavjudligiga qaramay, aholining ishlab chiqilayotgan qarorlarga taklif va mulohazalar kiritishdagi faolligi talab darajasida emas ya'ni 46,1% respondentlar maxsus muhokama platformasi haqida eshitgan, 23% respondentlar esa yangi ishlab chiqilayotgan qarorlar o'z mulohazalari va takliflarini qoldirib faollik ko'rsatishgan .

- har qanday yangi soha kabi kiber muhitning ijobiy va salbiy tomonlari mavjud hisoblanadi. Tahlillar va olingan ma'lumotlarga asoslanib biz ilmiy ishda raqamli texnologiyalarning mahalliy ijro hokimiyatiga ijobiy ta'siri sifatida biz tezkorlik, shaffoflik, korrupsiyaga qarshi kurash kabi ko'rsatkichlarni va salbiy tomonlariga esa raqamli savodsizlik, kiberxavfsizlik, insoniy aloqalarning kamayishi kabi yo'nalishlarni kiritamiz.


Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatmoqdaki, mahalliy davlat boshqaruvi tizimida raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali boshqaruv sifatini sezilarli darajada oshirish mumkin. Biroq, bu yo'nalishda tizimli yondashuv, strategik rejalashtirish va inson kapitaliga sarmoya kiritish muhim omil bo'lib qolmoqda. Respondentlarning aksariyati raqamli texnologiyalar hali to'liq joriy etilmaganini ta'kidlagan, bu esa mavjud infratuzilma, texnologik salohiyat va kadrlar tayyorgarligidagi muammolarga ishora qiladi.

EGDI (Elektron hukumatni rivojlantirish indeksi) bo'yicha O'zbekistonning 2024-yilda tarixiy natijalarga erishgani davlatning raqamli transformatsiya sohasidagi izchil siyosatini tasdiqlaydi. Xususan, Onlayn xizmatlar indeksi (OSI) ko'rsatkichining sezilarli o'sishi davlat xizmatlarining ochiqligi va fuqarolarga yaqinlashuvdagi muhim yutuqdir. Biroq, fuqarolarning raqamli ishtirok darajasining pastligi — 46,1% faqat mavjud platformalar haqida eshitgan, atigi 23% faol qatnashgan — bu boradagi kamchiliklarni bartaraf etish zaruratini ko'rsatmoqda.

Tadqiqotda taqdim etilgan AI-DSMS-LGA modeli zamonaviy sun'iy intellekt asosidagi boshqaruv yondashuvining namunasi sifatida baholanishi mumkin. Model boshqaruv qarorlarini qabul qilishda real vaqt rejimida katta hajmdagi ma'lumotlarni tahlil qilish, prognozlashtirish va monitoring qilish imkoniyatlarini taqdim etadi. Bu esa, qaror qabul qilish jarayonini nafaqat tezlashtiradi, balki uning aniqligi va samaradorligini oshiradi. Model tarkibida inson omiliga doir interfeysning mavjudligi esa, texnologik avtomatlashtirish bilan insoniy nazorat va javobgarlik o'rtasidagi muvozanatni ta'minlashga xizmat qiladi.

Shuningdek, sun'iy intellektdan foydalangan holda qaror qabul qilish tizimlarini rivojlantirish, davlat boshqaruvi madaniyatining tubdan o'zgarishini talab etadi. Bu faqat texnologik yechimlar orqali emas, balki boshqaruv jarayonlariga yondashuvda ham yangicha paradigmalarning shakllanishini ko'zda tutadi. AI-DSMS-LGA modelining o'z-o'zini takomillashtirish funksiyasi, vaqt o'tishi bilan qarorlarni qabul qilish sifatini yanada oshirish, muammolarga ilg'or algoritmik yechimlar orqali yondashish imkoniyatini beradi.

Sun'iy intellekt asosida ishlab chiqilgan AI-DSMS-LGA modeli boshqaruv tizimini yangi bosqichga olib chiqish imkoniyatiga ega. Bu model raqamli transformatsiyani faqat texnik vosita emas, balki boshqaruv madaniyatining tubdan yangilanishi sifatida qarash lozimligini ko'rsatadi. Modelda mahalliy davlat hokimiyati organlari qaror qabul qilish mexanizmlarini takomillashtirish maqsadida foydalanish mumkin. Shunga ko'ra biz uning modelini quyidagicha tasvirladik (2-rasm).



2-rasm. Qarorlar qabul qilishning AI-DSMS-LGA modeli.

Bundan tashqari, AI-DSMS-LGA modelining amaliy joriy etilishi quyidagi muhim jihatlarni talab etadi:

-texnologik infratuzilmaning mustahkamligi: Sun'iy intellekt tizimlari katta hajmdagi ma'lumotlar oqimini uzluksiz qabul qilish va tahlil qilishga mo'ljallangan ilg'or texnik platformalarni talab qiladi.

-kadrlar salohiyati va malaka oshirish: Raqamli tizimlarni boshqarish, ulardan samarali foydalanish uchun mahalliy hokimiyat xodimlarining raqamli savodxonligi va texnik bilimlari yetarli bo'lishi zarur.

-axborot xavfsizligi va maxfiylikni ta'minlash: Qaror qabul qilishda foydalaniladigan ma'lumotlar ko'pincha shaxsiy yoki strategik ahamiyatga ega bo'lishi mumkin. Shuning uchun AI-DSMS-LGA modeli bilan ishlovchi tizimlarda kiberxavfsizlik choralarining kuchaytirilgan bo'lishi talab etiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Raqamli transformatsiya jarayonlari mahalliy davlat boshqaruvi samaradorligini oshirishda muhim rol o'ynamoqda. Ayniqsa, boshqaruv qarorlarini tez, shaffof va faktlarga asoslangan holda qabul qilish imkoniyatini yaratadigan raqamli texnologiyalar, boshqaruv jarayonlarini soddalashtiribgina qolmay, aholining ishonchini mustahkamlash, ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash va hududiy rivojlanishni jadallashtirishga xizmat qilmoqda. Tadqiqotda ishlab chiqilgan AI-DSMS-LGA modeli orqali sun'iy intellektdan foydalangan holda mahalliy hokimiyat tizimida qarorlarni qo'llab-quvvatlash, tahlil qilish va monitoring qilish kabi amaliy funksiyalarni joriy etish mumkinligi aniqlandi.

Biroq, raqamli boshqaruv tizimining to'liq ishlashi uchun texnologik infratuzilma, raqamli savodxonlik, axborot xavfsizligi va huquqiy-me'yoriy baza birgalikda rivojlantirilishi zarur. Aholining raqamli ishtirok darajasini oshirish, ochiq ma'lumotlardan foydalanish madaniyatini shakllantirish va innovatsion yondashuvlarni tizimlashtirish orqali mahalliy boshqaruv tizimini yangi bosqichga olib chiqish mumkin. Shu bois, kelgusida sun'iy intellekt asosidagi qaror qabul qilish tizimlarini amaliyotga keng tatbiq etish, raqamli transformatsiyaning asosiy strategik yo'nalishlaridan biri bo'lib qoladi.

-raqamli transformatsiya mahalliy boshqaruv samaradorligini oshiradi

Mahalliy davlat hokimiyati organlarida raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali boshqaruv qarorlarini tezkor, shaffof va fuqarolar ehtiyojlariga mos ravishda qabul qilish imkoniyati ortadi. Bu esa boshqaruv tizimining ochiqligi va fuqarolarning davlatga bo'lgan ishonchini mustahkamlashga xizmat qiladi.

-AI-DSMS-LGA modeli boshqaruvda sun'iy intellektning amaliy qo'llanmasidir. Tadqiqot davomida ishlab chiqilgan AI-DSMS-LGA (Sun'iy Intellekt – Qarorlarni Qo'llab-Quvvatlash va Monitoring Tizimi) modeli



orqali mahalliy boshqaruv organlarida real vaqt rejimida prognoz, monitoring, va qaror tavsiyasi berish kabi funksiyalarni bajarish imkoniyati yaratiladi. Bu model boshqaruvni sun'iy intellekt yordamida modernizatsiya qilishga yo'l ochadi.

-EGDI indeksida O'zbekistonning o'sishi raqamli siyosatning samaradorligini ko'rsatib, 2024-yilda O'zbekiston EGDI reytingida yuqori natijaga erishib, Onlayn xizmatlar indeksi (OSI) bo'yicha sezilarli o'sishga erishgan. Bu natija davlat tomonidan olib borilayotgan raqamli transformatsiya siyosatining izchil va tizimli ekanini tasdiqlaydi.

-fuqarolarning raqamli ishtiroki pastligicha qolmoqda, ya'ni ilmiy ishimizda o'tkazilgan so'rov natijalari va platformalarning tahliliga ko'ra, aholining faqat 23% raqamli ishtirokda faol qatnashmoqda. Bu esa texnologik imkoniyatlarning mavjudligiga qaramay, aholi ongida raqamli madaniyat va ishtirokchilik darajasi hali yetarli emasligini ko'rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktyabrdagi «Raqamli O'zbekiston — 2030» strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-6079-sonli Farmoni. <https://lex.uz/docs/5030957>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 14-oktyabrdagi "Sun'iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-358-sonli Qarori. <https://lex.uz/uz/docs/7158604>
3. Sayogo, D. S. (2023). Critical success factors for data-driven decision-making in local government: a multi-case study analysis. JEDEM — Journal of eDemocracy and Open Government, 15(1), 45–66.
4. Yigitcanlar, T., & Scholten, P. (2024). Artificial intelligence and the local government: A five-dimensional framework for smart governance. Cities / Urban Studies
5. Tejado-Romero, F., et al. (2022). E-government mechanisms to enhance the participation of citizens in municipal decision-making: Evidence from Portuguese municipalities. Government Information Quarterly, 39(4),
6. Hossin, M. A. (2023). Big Data-Driven Public Policy Decisions: Transformation toward digital and smart governance. SAGE Open / Social Sciences
7. David, A., & Colleagues (2024). Understanding local government responsible AI strategy: from e-budgeting to smart budgeting. Public Administration Review / Government Information Systems
8. Кудина М.В., Воронов А.С., Гаврилюк А.В. Внедрение цифровых платформ для принятия решений в государственном управлении // Государственное управление. Электронный вестник. 2023. № 100. С. 166–179. DOI: 10.24412/2070-
9. Еремин, Сергей Геннадьевич. «Применение цифровых технологий в сфере государственного управления на федеральном уровне и направления их совершенствования.» Экономика. Налоги. Право 17.1 (2024): 98-105.
10. Тихонов А. В. От социологии менеджмента к социологии управления // Социологические исследования. 2011. № 2. С.40-45.
11. <https://publicadministration.un.org/egovkb/en-us/Data/Country-Information/id/186-Uzbekistan/dataYear/2024>

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. № 10

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100